

UO'K: 616.94:616-053.2/3

**KESARCHA KESISH AMALIYOTIDA TUG'MA JAROHATLARNING
BIOMEXANIZMI**

Zubtiyev S.U.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Zubtiyev Sardor Uktamovich

Orcid:0009-0003-3628-9723

E-mail:sardoruktamovich@gmail.com

Annotatsiya: Yangi tug'ilgan chaqaloqlar o'limining aksariyat qismi erta tug'ilish, intronatal asoratlar (tug'ilish asfiksiyasi/travmasi), neonatal infeksiyalar va tug'ma nuqsonlar tufayli davom etmoqda[1].

Kalit so'zlar: kesarcha kesish, biomexanizm, tug'ma shikastlanish.

Hozirgi kunda eng ko'p ishlatiladigan kesarcha kesish amaloyoti-bachadonning pastki segmentida ko'ndalang kesma bilan operatsiyasi hisoblanadi. Barcha klassik manipulyatsiyalarda homila ekstraksiyasi boshning asosiy aloqa yuzasi (akusher qo'llarining kaft yuzalari) va cheklangan aloqa yuzasi(akusherning barmoqlari) bo'lgan omillar o'rtasida siqilishiga olib keladi. Boshdagi bosim qanchalik kuchli bo'lsa, deformatsiya shunchalik kuchli bo'ladi va klassik travmatik miya shikastlanishiga olib kelishi mumkin[2].

Shoshilinch kesarcha kesish amaliyotlaridan birida - homilaning boshi onaning tos suyagining tor qismida tiqilib qolganida va shuning uchun ba'zida bolaning boshini qin orqali bachadon bo'shlig'iga itarib chiqarish qo'llaniladi, bu esa qo'shimcha ravishda bo'yin-ensa bo'g'imining deformatsiyasiga olib keladi va tepa suyaklariga mahalliy bosim ortishidan, ularning chiziqli sinishiga olib kelishi mumkin. Akusher-ginekolog qo'llarining klassik kesarcha kesish amaliyotida-haqaloqning boshini chiqarib olish manipulyatsiyasi paytida, homila boshining

deformatsiyasiga olib kelishi mumkin va, shu orqali bosh miya va/yoki orqa miya-umurtqa pog'onasini travmatik shikastlanishlariga olib kelishi ilmiy adabiyotlarda keltirilgan[3,4].

Tug'ruq shikastlanish mexanizmini aniqlash uchun to'liq tahlil qilish kerak, ya'ni tug'ilishning butun davri va uni neyrosonografiyasi, keyinchalik MRT, KT, bosh suyagi va orqa miya rentgenografiyasi ma'lumotlari bilan taqqoslash lozim. Tahlil homila va yangi tug'ilgan chaqaloqning fiziologik xususiyatlarini qat'iy hisobga olgan holda amalga oshirilishi shartlini eslatib o'tamiz.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti: Tadqiqot ob'ekti sifatida Respublika patologik anatomiya markazida 2013-2023 yillarda kesarcha kesish amaliyotidan so'ggi tug'ma shikastlanishdan vafot etgan 17 ta chaqaloqlarning autopsiya arxiv materiallari tanlab olingan. Ajratib olingan materillarning makro/mikro xususiyatlari va ulardagi patomorfologik o'zgarishlari tahlil qilindi.

Olingan natijalar: Ajratib olingan 17 ta materiallardan vafot etgan yangi tug'ilgan chaqaloqlarning 10 nafari o'g'il (58,9 foiz), 7 nafari qiz (41,1 foiz) ekanligi, shuningdek ular orasida o'z muddatidagi yirik vaznli chaqaloqlar (64,7 foiz) ekanligi ma'lum bo'ldi .

Makroskopik tekshirishda - barcha holatlarda bosh qismining teri va teri osti yumshoq to'qimalaring shikastlanganlik belgilari qayd etilgan.

Gistologik tekshirish natijasida esa, turli xil darajadagi miya pardalari orasida qon quyilishlar, perivaskulyar va perisellulyar shishlar, shuningdek bosh miya mikrosirkulyatsion buzilishlari aniqlandi.

Xulosa

1)Tug'ilishning barcha turlari uchun xavf omillari: 30 yoshdan oshgan ayollarning yoshi, murakkab akusherlik-ginekologik va somatik anamnez ushbu patologiya rivojlanganligi;

2)10ta holatda tug'ruq tabiiy bilan boshlangan, ammo keyinchalik kesarcha kesish amaliyoti bilan tugab, yangi tug'ilgan chaqaloqlarning ahvoli 70,6% hollarda o'rta og'ir darajasi qayd etilgan bo'lib, darhol IVLga olingan.

3)Jami 76,5% kefalogenatoma va og'il bolalarning 60%da umurtqa

pogʻonasining boʻyin qismi kompressiyasi kuzatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/newborn-mortality>
2. Бурдули Г.М., Фролова О. Г.— Репродуктивные потери.— М.: «Триада-Х», 2013
3. Судебно-медицинская экспертиза родовой травмы новорожденных: биомеханика и диагностика / [Парилов С.Л., Клевно В.А., Бубнова Н. И. и др.]; под ред. проф. В.А. Клевно — М.: Ассоциация СМЭ.— 2015.—186 с.: ил. ISBN 978-5-9905503-5-3.
4. Парилов С. Л., Клевно В. А. Дифференциальная диагностика постнатальной сочетанной травмы от родовых повреждений у новорожденных. // Журнал Судебно-медицинская экспертиза. 2008. Т. 51. № 6. С. 19–21.